


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi
magistratura mutaxassisligining malaka talablari

Toshkent 2023



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Farg‘ona politexnika instituti

Namangan muxandislik-qurilish instituti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» 08 dagi 362 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

<i>T/r</i>		<i>bet</i>
1.	70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi	4
1.1	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi magistratura mutaxassisligi malaka talabini qo‘llanilishi	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi	4
1.2.1.	70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari	4
1.2.2.	70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob‘yektlari	5
1.2.3.	70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi mutaxassislik bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	6
1.2.4.	70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy vazifalari	6
2.	70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	8
2.3.	70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar	9
2.3.1.	Kvalifikatsiya	9
2.3.2.	70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar	9
2.3.3.	70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasidagi yuklama hajmi	10
	Bibliografik ma‘lumotlar	11
	Kelishuv varag‘i	

1. 70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi magistratura mutaxassisligi malaka talabini qo'llanilishi.

Malaka talabi 70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi arxitektura va qurilish sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, ilmiy-tadqiqot markazlarida, loyihalash institutlarida, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, turli mulkchilik shaklidagi qurilish, loyihalash va xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini tashkil

etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni yechish, davlat miqyosida, hududiy hamda tarmoq va sohalar bo'yicha qurilishni rivojlantirish istiqbollari belgilash, qurilishni boshqarish va uni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, qurilish sohasi faoliyatini tashkil etish bo'yicha qonuniy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, ekspertiza qilish va ular ijrosini ta'minlash, qurilish ishlarini me'yorlash "Shaharsozlik qoidalari va me'yorlari"-SHNK, "Qurilish qoidalari va me'yorlari"-QMQ, "Idoraviy qoidalar va normalar"-IQNlar ishlab chiqish, ekspertiza qilish va nazorat sinovlari o'tkazish, barcha turdagi sanoat va fuqaro binolari, inshootlari hamda muhandislik kommunikasiyalari, shahar infratuzilmasi ob'ektlari qurilishi va ularni obodonlashtirish loyihalarini zamonaviy axborot texnologiyalar dasturlari yordamida loyihalash va hisoblash, barcha turdagi bino va inshootlar konstruksiyalarining ishonchliligi va samaradorligini oshirish, ularni xisoblash va loyihalash usullarini takomillashtirish ishlarini amalga oshirish, bino va inshootlardan foydalanishni tashkil etish, texnik-iqtisodiy ekspertiza qilish va foydalanish qilish xarajatlarini asoslash bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida, ilmiy tadqiqot markazlarida;
- ishlab chiqarish korxonalarida;
- loyihalash institutlarida;
- qurilish tashkilotlarida;
- ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida;
- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari;
- vazirlik va qo'mitalar, davlat boshqaruvi organlari; viloyat, shahar, tuman hokimiyatlarida qurilish faoliyati bilan bog'liq jarayonlari;
- turli mulkchilik shaklidagi qurilish va qurilish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalar, xolding kompaniyalar, assosiasiyalar, konsernlar, uyushmalar, qo'shma korxonalar, xorijiy korxonalar, birjalar, banklar, konsalting va venchur korxonalar, turli korxonalar tashkilotlarning qurilish hamda bino va inshootlardan foydalanish faoliyati bilan bog'liq jarayonlar;
- iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida bunyod etilayotgan qurilish ob'ektlari;
- ilmiy-tadqiqot markazlari va loyihalash institutlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari;
- mutaxassislikka mos kasb-hunar kollejlari, akademik liseylar va oliy ta'lim muassasalarining bo'limlari va o'quv jarayonlari;
- iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida qurilish faoliyatida qo'llaniladigan kompyuter dasturiy ta'minoti tizimlari;

1.2.3. 70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati;
- axborot-tahliliy faoliyat.

1.2.4. 70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi xamda magistr faoliyatlarining sohalari, ob'yektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (ye-learning), mobil(m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyatida:

- Barcha jarayonlarni ketma ketligini inobatga olib, ularni eskiz loyhasidan boshlab konstruktorlik jarayonlarigacha bo'lgan barcha texnologik talablarini bilishi lozim

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy kasbiy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish, loyihalash va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar;
- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan loyihalashda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;
- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;
- loyihalar samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. 70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati

undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha strategik rejalarni ishlab chiqish, boshqaruv sohasida yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

- korxonalar va tashkilotlar tashkiliy tuzilmalarini optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilishi;

- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazifalariga

moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- korporativ axborot tizimlarini, loyiha oldin tahlil va loyiha xujjatlarini tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

- ishlab-chiqarishdagi vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo‘lish;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ekspertizadan o'tkazishni bilish, ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

2.3. Kvalifikatsiya:

Mutaxassislik bo'yicha bitiruvchilarga Qurilish muhandisi (tadqiqotchi, pedagog) kvalifikatsiyasi beriladi.

2.3.2. 70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi magistratura mutaxassisli uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1440	48
Tanlov fanlar	360	12
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3. 70730308 –Bino va inshootlar zilzilabardoshligi magistratura mutaxassisli bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	1440	48	
1.01	ITM1104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO‘M1104	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	120	4	1
1.03	IDU1110	Inshootlar dinamikasi va ustuvorligi	300	10	1,2
1.04	EPN1210	Elastiklik va plastiklik nazariyasi	300	10	1,2
1.05	BIZ1216	Bino va inshootlar zilzilabardoshligi (maxsus kurs)	300	10	2,3
1.06	QKIN1204	Qurilish konstruksiyalarining ishonchlilik nazariyasi	180	6	2
1.07	BIZ1206	Bino va inshootlarni zilziladan aktiv himoya qilish sistemalari	120	4	2
2.00		Tanlov fanlari	360	12	2,3
		Jami:	1800	60	
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	
3.01	ITIMDT1130	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	840	28	
3.02	IPI1116	Ilmiy-pedagogik ish	480	16	
3.03	IA(S)1414	Ilmiy amaliyot (stajirovka)	420	14	
		Attestatsiyalar	60	2	
		HAMMASI	3600		

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 624.042.7 + 699.841

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch soʻzlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat ob'yekti, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot ob'yekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, ilmiy faoliyat, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoat nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza, fan dasturi, bino, inshoot, zilzila, zilzilabardoshlik, loyiha, avtomatlashtirilgan loyihalash, konstruksiya, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar, konstruktiv yechim, konstruktiv sistema, konstruktiv sxema, qurilish sistemasi, montaj, montaj texnologiyasi, qurilish materiallari, temirbeton konstruksiyalar, armatura, standartlashtirish, qurilish konstruksiyalari, investitsiya loyihalari, zamin, poydevor, grunt, gidrotexnika inshootlari, binodan foydalanish, ilmiy tadqiqot, boshqaruv tizimi.

Ишлаб чиқувчилар, келишилган асосий турдош олий таълим муассасалари ҳамда кадрлар истеъмолчилари

ИШЛАБ ЧИҚИЛГАН:

Тошкент архитектура-қурилиш унiversитети

Ректор _____ Э.Каҳя

2023 йил « _____ » _____



КЕЛИШИЛГАН:

Ўзбекистон Республикаси
Олий таълим, фан ва инновациялар
вазирлиги ҳузуридаги Олий таълимни
ривожлантириш тадқиқотлари маркази

Директор _____ Ш.Якубов



2023 йил « _____ » _____

"ТРЕСТ" АЖ

Тошкент давлат транспорт
университети

Ректор _____ О.Абдурахмонов



ЎзР ФА Механика ва иншоотлар
сейсмик мустаҳкамлиги институти

Директор _____ Ф.Назиров

2023 йил « _____ » _____



Директор _____ К.С.Султанов

2023 йил « _____ » _____



ТОШКЕНТ АРХИТЕКТУРА-ҚУРИЛИШ УНИВЕРСИТЕТИ
70730308- "Бино ва иншоотлар зилзилабардошлиги" мутахассислиги бўйича
олий таълим олиб бораётган магистрлар тайёрлашнинг тайёргарлик даражаси ва
зарурий билимлар мазмунига қўйиладиган талаблар янгиланган малака
талаблари ва ўқув режасига

ТА Қ Р И З

Малака талаблари 340000 - "Архитектура ва қурилиш" соҳаси Давлат таълим стандарти, Олий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари классификатори, Ўзбекистон Республикаси Миллий малака рамкасига мувофиқ ишлаб чиқилган.

Малака талабларининг биринчи қисмида 70730308 – Бино ва иншоотлар зилзилабардошлиги магистратура мутахассислигининг умумий таснифи, яъни қўлланилиш соҳаси, мазкур мутахассислик бўйича магистрлар касбий фаолиятларининг тавсифи батафсил очиқ берилган. Унинг иккинчи қисмида 70730308 – Бино ва иншоотлар зилзилабардошлиги мутахассислиги бўйича магистрларнинг касбий компетенцияларига қўйиладиган талаблар умумий компетенциялар ва касбий компетенцияларга ажратилган ҳолда баён қилинган. Шунингдек, магистратура мутахассислигининг ўқув режаси ва фанлар дастурлари мазмунига қўйиладиган умумий талаблар ҳамда ўқув режасидаги юклама ҳажмига қўйилган талаблар кўрсатиб ўтилган.

Тайёрланган малака талабида "кредит-модуль" тазимининг жорий этилгани, танлов фанларининг кўпайганини алоҳида таъкидлаш лозим. Бунда ривожланган давлатлар олий таълим муассасаларининг илғор тажрибалари ва тавсияларидан фойдаланган ҳолда халқаро таълим стандартлари жорий қилингани, малакали профессор-ўқитувчилар ва иш берувчи ташкилотларнинг етакчи малакали мутахассислари ҳамкорликда сифатли ўқув дастурлари ва ўқув материалларини ишлаб чиқиш орқали таълим сифатини оширилиши, замонавий таълим технологиялари ва ўқув жараёнларини ташкил этишнинг самарали шакллари ўзлаштириш орқали педагог кадрлар салоҳиятини оширишга кўмаклашувчи рақобат муҳитини яратилиши, талабага таълим дастурини мустақил шакллантириш имкониятини яратиш ва билимини баҳолашнинг ошқоралигини таъминлаши муҳим аҳамиятга эга.

70730308- Бино ва иншоотлар зилзилабардошлиги магистратура мутахассислиги учун ишлаб чиқилган малака талаблари ва ўқув режасини тасдиқлашга тавсия этаман.

ЎЗР ФА МИСМИ "Конструкциялар
мустаҳкамлиги ва иншоотлар
сейсмик барқарорлигининг
экспериментал тадқиқотлари" лаб,
мудир, т.ф.ф.д., PhD, к.и.х.

Ювмитов А.С.

А.С. Ювмитов
IMZOSINI TASDIQLAYMAN



Тошкент архитектура-қурилиш университети
70730308 – Бино ва иншоотлар зилзилабардошлик мутахассислиги бўйича малака
талаблари ва ўқув режасининг ишлаб чиқувчилар, турдош олий таълим
муассасалари ва асосий кадрлар истеъмолчилари ўртасида

КЕЛИШУВ ДАЛОЛАТНОМАСИ

Тошкент ш.

“ _____ ” _____ 2023 йил

Биз қуйида имзо чекувчилар - Ўзбекистан Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий таълимни ривожлантириш тадқиқотлари маркази директори Ш.Якубов, Тошкент давлат транспорт университети ректори О.Абдурахмонов, “12-ТРЭСТ” АЖ директори Ф.Назиров ва “Ўзоғирсаноатлойиха” АЖ директори Б.Хазратқуловлар биргаликда Тошкент архитектура-қурилиш университетида ишлаб чиқилган қуйидаги магистратура мутахассислигининг малака талаблари ва ўқув режаси мазмуни билан танишиб чиқиб, келишув ҳақида ушбу далолатномани туздик:

70730308 – Бино ва иншоотлар зилзилабардошлиги мутахассислиги.

Малака талаблари ҳамда ўқув режани ишлаб чиқилишида Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғриси”да ПҚ-2909-сон, 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иктисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сон, 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг камровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775-сон, 2022 йил 8 ноябрдаги “Архитектура-қурилиш соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-416-сон қарорларига ҳамда олий таълим соҳасини тартибга солувчи бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, шунингдек, халқаро талабларга асосланган.

Мазкур малака талаблари ва ўқув режаларининг ишлаб чиқилишида асосий кадрлар истеъмолчилари томонидан кўйилган талаблар ҳам инобатга олинган.

Мутахассислиги бўйича малака талаблари ўқув режа ва фан дастурлари ҳамда бошқа ҳужжатларни яратиш учун асос бўлиб ҳисобланади.

Ишлаб чиқилган малака талаблари ва ўқув режани ўрнатилган тартибда тасдиққа тавсия этиш мумкин

Тошкент давлат транспорт университети
ректору

О.Абдурахмонов

“12-ТРЭСТ” АЖ директори

Ф.Назиров

ЎзР ФА Механика ва иншоотлар сейсмик
мустаҳкамлиги институти

К.С.Султанов



Тошкент архитектура-курулиш университетида
ишлаб чикилган 70730308-Бино ва иншоотлар зилзилабардошлиги мутахассислиги
бўйича олий маълумотли магистрлар тайёрлашнинг тайёргарлик
даражаси ва зарурий билимлар мазмунига қўйиладиган талаблар янгиланган
малака талаблари ва ўқув режасига

ТА Қ Р И З

Малака талаблари 340000 - “Архитектура ва қурилиш” соҳаси Давлат таълим стандарти, Олий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари классификатори, Ўзбекистон Республикаси Миллий малака рамкасига мувофиқ ишлаб чикилган.

Малака талабида 70730308-Бино ва иншоотлар зилзилабардошлиги магистратура мутахассислигининг умумий таснифи, яъни қўлланилиш соҳаси, мазкур мутахассислик бўйича магистрлар касбий фаолиятларининг тавсифи батафсил очиб берилган. Бундан ташқари унда 70730308-Бино ва иншоотлар зилзилабардошлиги мутахассислиги бўйича магистрларнинг касбий компетенцияларига қўйиладиган талаблар умумий компетенциялар ва касбий компетенцияларга ажратилган ҳолда баён қилинган. Ҳужжатда магистратура мутахассислигининг ўқув режаси ва фанлар дастурлари мазмунига қўйиладиган умумий талаблар шунингдек, ўқув режасидаги юклама ҳажмига қўйилган талаблар кўрсатиб ўтилган.

Тайёрланган малака талабида “кредит-модуль” тизимининг жорий этилгани, танлов фанларининг кўпайганини алоҳида таъкидлаш лозим. Бунда ривожланган давлатлар олий таълим муассасаларининг илғор тажрибалари ва тавсияларидан фойдаланган ҳолда халқаро таълим стандартлари жорий қилингани, малакали профессор-ўқитувчилар ва иш берувчи ташкилотларнинг етакчи малакали мутахассислари ҳамкорликда сифатли ўқув дастурлари ва ўқув материалларини ишлаб чиқиш орқали таълим сифатини оширилиши, замонавий таълим технологиялари ва ўқув жараёнларини ташкил этишнинг самарали шаклларини ўзлаштириш орқали педагог кадрлар салоҳиятини оширишга кўмаклашувчи рақобат муҳитини яратилиши, талабага таълим дастурини мустақил шакллантириш имкониятини яратиш ва билимини баҳолашнинг ошқоралигини таъминланиши муҳим аҳамиятга эга.

70730308 - Бино ва иншоотлар зилзилабардошлиги магистратура мутахассислиги учун ишлаб чиқилган Малака талаби ва ўқув режасини тасдиқлашга тавсия этаман.

Тошкент давлат транспорт университети
“Бино ва иншоотлари қурилиши”
кафедраси мудири



Ш. Х. Бойматов